



MODERN MECHANISMS FOR ENSURING INFORMATION SECURITY IN SHAPING MEDIA CULTURE AMONG YOUTH

Dilshoda Abdiyeva

Researcher, Department of "Pedagogical Education"

National University of Uzbekistan (NUUz)

E-mail: d.abdiyeva@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: information society, Digital Uzbekistan – 2030, information culture, trade unions, digital technologies, social networks, web network.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article examines how digital technologies fundamentally transform citizens' perceptions of participation in politics and their ability to influence political decision-making. It analyzes how digitalization contributes to optimizing human resources and enables new forms of political participation. The study also explores issues related to informatization and modern information tools, which, alongside their positive impact on economic and political spheres, the introduction of advanced technologies, and the growth of society's intellectual potential, intensify competition for the information space and further expand opportunities for information and psychological influence on individuals.

YOSHLARDA MEDIA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Dilshoda Abdiyeva

O'zMU "Pedagogik ta'lim"

kafedrasi tadqiqotchisi

E-mail: d.abdiyeva@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, Raqamli O'zbekiston – 2030, axborot madaniyati, kasaba uyushmalari, raqamli

Annotasiya: Mazkur maqolda raqamli texnologiyalar fuqarolarning siyosatdagi ishtiroki va uning siyosiy qarorlarga ta'sir qilish qobiliyati haqidagi tasavvurini tubdan

texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, web tarmoq.

o'zgartirib yuborishi, raqamlashtirish inson resurslarini optimallashtirishga va siyosatda yangi shakllarda ishtirok etishga yordam berishi, shuningdek, axborotlashtirish va zamonaviy axborot vositalari iqtisodiy, siyosiy sohalarga, ilg'or texnologiyalarning joriy qilinishiga, jamiyatning intellektual salohiyati oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazish bilan birga axborot maydoni uchun kurashning kuchayishiga, insonga axborot-psixologik ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining yanada kengayishiga oid masalalar tadqiq qiligan.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ МЕДИАКУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ

Дилшода Абдиева

Исследователь кафедры «Педагогическое образование»

Национальный университет Узбекистана

E-mail: d.abdiyeva@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информационное общество, «Цифровой Узбекистан – 2030», информационная культура, профсоюзы, цифровые технологии, социальные сети, веб-сеть.

Аннотация: В данной статье исследуется, как цифровые технологии коренным образом меняют представления граждан об участии в политике и их способности влиять на принятие политических решений. Анализируется роль цифровизации в оптимизации человеческих ресурсов и формировании новых форм участия в политике. Также рассматриваются вопросы, связанные с информатизацией и современными информационными средствами, которые, наряду с положительным воздействием на экономическую и политическую сферы, внедрением передовых технологий и ростом интеллектуального потенциала общества, приводят к усилению борьбы за информационное пространство и дальнейшему расширению возможностей информационно-психологического воздействия на человека.

Kirish. Global axborotlashgan jamiyatni shakllantirish jarayoni shiddat bilan amalga oshayotgani, bu jarayonda tobora ko'proq mamlakatlar faol ishtirok etayotganligini guvohi bo'lib

turibmiz. O'zbekistonning ham istiqboldagi rivojlanish strategiyasidan axborot tizimlari shakllantirish omillari va shart-sharoitlarini yaratish masalalari o'rin olgan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev "Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas" [1] deb ta'kidlaganligini alohida qayd etish zarur. Prezidentning takliflari asosida 2020 yilning oktyabrida mamlakatda raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari zamirida jamiyatning rivoji nafaqat uning texnik sohadagi yutuqlar, balki fuqarolar va avvalo, yoshlarning axborot madaniyati darajasi bilan ham belgilanishi nazarda tutilgan. Bu esa, "O'zbekistonda yoshlar tomonidan zamonaviy bilimlar egallanmasdan, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini tarbiyalamasdan biror bir jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy, texnik masalani hal etib bo'lmasligi to'g'risidagi tasavvur to'liq shakllanganligini ta'kidlash zarur" [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Internet texnologiyalarining katta ijtimoiy hayotga kirib borayotgan yoshlarga ta'siri masalalari K. Doych, D. Iston, G. Almond, Dj. Koulman, L. Pay, U. Shramm, T. Adorno, G. Markuze, Yu. Xabermas, M. Xorkxaymer, G. Shiller, Kactelc, M. Maklyuen, Ye. Masuda, E. Toffler singari olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Global axborot makonida axborotning sivilizatsiyalarga ta'siri, ularning namoyon bo'lish xususiyatlari borasida G.Lassuel, D.Bell, Z.Bjezinskiy, P.Druker, M.Kastels, M.Porat, Y.Masuda, T.Stouner, R.Kats, R.Robertsonlar tadqiqotlari amaliy ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko'rsatishning barcha sohalariga joriy etish, ijtimoiy-siyosiy hayotiga axborot xizmatlarini qo'llash, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratishga oid falsafiy tadqiqotlar O. F. Fayzullaev, M. N. Abdullaeva, R. M. Imomalieva, K. J. Tulenova, Z.D. Davronov, E. M. Izzetova, N.A. Shermuhamedova, Sh. S. Kushakov, M. A. Usmonova, M. Yoqubova, G. G'afforova kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi paytda tarix sahnasining birinchi qatorlariga, avval tasavvur qilingandek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan mamlakatlar emas, balki ta'lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta'minlashga erishgan mamlakatlar chiqayotganligini ko'rsatmoqda. "Kelgusida esa, insonni va avvalo

yoshlarni nafaqat yangi texnologiyaga o'qitish va ulardan foydalanish qobiliyatini shakllantirish, balki bu texnologiyalarni yaratishda va takomillashtirishda ularning keng ishtirokni ta'minlash ustuvor vazifalardandir" [3]. Bu esa yoshlardan, bilimlarni chuqur egallashni, katta hajmdagi axborotni chuqur o'zlashtirishni va undan samarali foydalanishni hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylantirmoqda.

O'zbekistonda Mustaqillik yillarida aholi va avvalo yoshlar tomonidan axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash hamda foydalanish omillariga jiddiy e'tibor berilganligini alohida qayd etish zarur.

So'nggi yillarda aloqa va axborotlashtirish sohasida salmoqli ishlar qilinganligi va ulardan insonlar va avvalo yoshlar kundalik turmushda samarali foydalanishi uchun keng imkoniyat yaratilganligi yaqqol namoyon bo'layotganligi haqida ko'plab misollar mavjud.

Shunday qilib, jamiyat rivojlanishning axborot bosqichiga kirganda, bu sohada ko'rsatiladigan xizmatlar qamrovi oshadi va sifati yaxshilanadi. Zarur bo'lganda holis va to'liq ma'lumotni qaerdan izlash, uni tahlil qilish, saqlash, foydalanish va tarqatish uchun insonda qanday bilim va salohiyat bo'lishi lozim? Globallashuv jarayonlari shaxsning axborot madaniyati darajasiga qanday ta'sir qiladi?

"Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin xis eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan, axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qandirishga qaratilgan bilimlar va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi" [4].

Insonning axborot madaniyati mezonlariga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

axborotga bo'lgan ehtiyojni to'g'ri shakllantira olish;

axborot resurslari orasidan o'zi uchun kerakli bo'lgan axborotni izlay olish;

uni qayta ishlash va shu asnoda sifat jihatidan yangi axborot yarata bilish;

yakka tartibda axborot qidiruvi tizimini olib borish;

axborot muloqotiga qodirlik va kompyuter sohasidagi savodxonlik kabi ko'nikmalarni shakllantirish lozim.

Axborot madaniyati darajasi inson hayotining muvaffaqiyatli faoliyatiga, kelajagiga juda katta ta'sir qiladi va uning faoliyat erkinligini kengaytiradi. Hozirgi davrda ma'lumotni izlab topish va undan foydalanish qobiliyatining darajasi hamda o'zini media hamjamiyatida namoyon etish masalasi insonning ijtimoiy mavqeiga u olingan ma'lumotga, oilasining iqtisodiy va ijtimoiy holatiga va boshqa ijtimoiy omillarga nisbatan ko'proq ta'sir qiladi.

Shu jihatdan zamonaviy inson o'z kasbiy faoliyatining dastlabki bosqichida axborot muhiti bilan samarali muloqot qilishning yaxshi shakllangan ko'nikmalariga ehtiyoj sezadi.

Quyida axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlarining oʻziga xos jihatlariga eʼtibor qaratmoqchimiz.

1. Har qanday jamiyatning qudrati, jumladan axborot sohasida ham nafaqat zamonaviy AKTdan foydalanish darajasi, balki jamiyat aʼzolarida axborotdan foydalanish madaniyatida ham namoyon boʻladi. Shu sababdan axborot texnologiyalaridagi zamonaviy oʻzgarishlar aholining kundalik faoliyatida qoʻllanilsa, ularning samarasi oshib boradi.

2. Axborot jamiyatining shakllanishiga fuqarolarning axborot sohasida faol emasligi va davlat boshqaruvi idoralarning yopiqligi ham toʻsqinlik qiladi.

3. Axborot texnologiyalarning rivojlanish darajasi mamlakatning bilimlar jamiyati sifatida rivojlanish darajasi hamda axborot isteʼmolchisining madaniyati saviyasiga bogʻliqdir.

4. Hozirda jamiyatni axborotlashtirish bilan bogʻliq turli dasturiy va texnik vositalarni ishlab chiqilgan. Shu jihatdan ijtimoiy hayotga mos boʻlmagan past sifatli axborot yuqori sifatli texnologiya bilan qayta ishlansa, ziddiyatli aks holat yuzaga keladi.

5. Axborotni toʻplash va uni qayta ishlash mexanizmlaridan aholining maʼlum bir qismigina foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi, shu guruhga oʻz manfaatlaridan kelib chiqib axborot tarqatish uchun sharoit yaratadi.

6. Axborot infratuzilmalari texnolog-ekspertlar tomonidan yaratiladi, shuning uchun jamiyat hayotida texnokratik tendensiyalar ustunlik qilish xavfi mavjud. Shu boisdan jamiyatni rivojlantirish jarayonida inson ishtiroki omillari va koʻrsatkichlarini aniq belgilash talab etiladi.

7. Axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi axborot madaniyatini mutanosib ravishda rivojlantirishni talab etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi surʼati qanchalik tez boʻlsa, odamlarning axborot va psixologik faoliyatida shunchalik koʻp muammolar paydo boʻladi.

8. Shaxsning axborot jarayonlariga taʼsir qilish imkoniyatlarini oshirish masalasi, oʻz navbatida, uning oʻz erkinligini maʼnaviy masʼuliyat tushunchasi bilan mutanosib ravishda birlashtirish masalasini keltirib chiqaradi.

Xullas, axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlarining oʻziga xos jihatlarini umumlashtirgan holda qayd etish lozimki, mazkur muammolarni umumjamiyat muammolari qatoriga kiritish mumkin. Shu nuqtai nazardan, axborot jamiyatining shakllanishi sharoitida, axborotlashtirishning madaniy tomonini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, axborot madaniyati quyidagi vazifalarni bajaradi:

– tartibga soluvchi. Negaki, u insonning barcha faoliyatiga, shu jumladan axborot sohasidagi hayotiga hal qiluvchi taʼsir koʻrsatadi;

– kognitiv. Negaki, u insonning tadqiqot faoliyati va uning bilim olishi bilan bogʻliq;

– kommunikativ. Negaki, axborot madaniyati insonlarning o‘zaro bog‘liqligining ajralmas tarkibiy qismidir;

– tarbiyaviy. Negaki, axborot madaniyati inson tomonidan butun madaniyatni va insoniyat to‘plagan barcha boyliklarni egallashda, uning xulq -atvorini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Shu o‘rinda rivojlangan mamlakatlarda insondagi axborot madaniyatini shakllantirish masalalarini tahlil etishda, uning darajasini belgilovchi quyidagi indikatorlar qabul qilinganligini aytish ham lozim.

- Zamonaviy talablarga javob beradigan ta’lim tizimining mavjudligi;
- Jamiyat a’zolariga axborotdan samarali foydalanish imkonini yaratuvchi axborot infratuzilmasining mavjudligi;

- axborot olish huquqi kafolatlarini yaratuvchi hamda ommaviy axborot vositalari faoliyatini liberallashtirishga qaratilgan demokratlashuv jarayonlari;

Jamiyat a’zolarining, yuqorida qayd etilgan axborot madaniyati darajasini belgilovchi asosiy indikatorlarning ahamiyatini to‘liq e’tirof etgan holda, ular ichida zamonaviy talablarga javob beruvchi ta’lim tizimini alohida ajratish zarur.

Ta’limning roli inson kapitali ta’siri o‘shishi bilan birga muttasil yuksalib bormoqda. Ta’lim infratuzilmasi har qanday mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan hisoblanadi. Zero, u davlat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarishniig alohida sohasiga aylanib ulgurdi.

Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyevning “Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarimizning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi, deb o‘ylayman. Albatta, kompyuter, planshet - yaxshi. Nevaralarimiz, bolalarimizga odamning xavasi keladi. Lekin madaniyat yoshlikdan, insonni bolalar bog‘chasida, maktabda kitob o‘qishga o‘rgatishdan boshlanadi” [5] deb ta’kilagan edi.

Mazkur sohada rivojlangan mamlakatlarda boy tajriba to‘plangan, jumladan, “Finlyandiya Ta’lim va madaniyat vazirligining rivojlanish rejasida kutubxonalarga media savodxonligini oshirishda faol ishtirok etish vazifasi yuklatilgan. Finlyandiyaning “Kutubxonalar faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida fuqarolarning ta’lim olishda teng huquqlarga ega ekanliklari, shuningdek, “bilim va ko‘nikmalarni umr bo‘yi uzlyuksiz rivojlantirish”i belgilab qo‘yilgan” [6]. Bugungi kunda ushbu konsepsiya axborot madanyati ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Kutubxonalar mazkur maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda o‘ta muhim vazifani bajarmoqda va ularning faoliyati faol qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu maktablar va kutubxonalar, shuningdek, boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishda namoyon bo‘lmoqda.

Finlyandiya ommaviy kutubxonalar uzoq tarix va an'analarga ega. Ular kitobxonlarga kitoblar, CD, DVD – elektron axborot mahsulotlarini bepul taqdim etadi. “Kutubxonalar kompyuterlar bilan jihozlangan bo‘lib, yoshlar bo‘sh vaqtlarini o‘tkazish uchun kutubxonalariga kelishadi. Kutubxonalarda bolalar va yoshlar uchun alohida maxsus bo‘limlar mavjud” [7]. Kutubxonalar soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiriladi. Ular faoliyatining maqsadi – axborot-kommunikatsiya sohasidagi bilimlarni egallash uchun teng imkoniyatlarni yaratish.

Axborotlashtirish va zamonaviy axborot vositalari iqtisodiy, siyosiy sohalarga, ilg‘or texnologiyalarning joriy qilinishiga, jamiyatning intellektual salohiyati oshishiga ijobiy ta‘sir o‘tkazish bilan birga axborot maydoni uchun kurashning kuchayishiga, insonga axborot-psixologik ta‘sir o‘tkazish imkoniyatlarining yanada kengayishiga olib keladi.

Aytish zarurki, insonga ta‘sir o‘tkazib, uning xulq-atvorini o‘zgartirish misollari qadimgi zamonlardan ma‘lumdir. Misr, Xitoy, Qadimgi Gresiya va Rimda shakllangan insonning fikri, ruxiy holati va xatti-harakatlarini boshqarish san‘ati haqidagi ma‘lumotlar tarixiy manbalar yordamida bizlargacha yetib kelgan. Asrlar osha omma tomonidan axborot olish imkoniyatlarining kengayib borayotganligi natijasida, u qudratli siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy qurolga aylanib, turli siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini kuzatish mumkin.

Taraqqiyot bilan birga insoniyat ustidan zo‘ravonlik shakllari ham o‘zgarib, rivojlanib, endilikda odamlar ichki dunyosiga ta‘sir ko‘rsatish va uni boshqarish egalladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning murakkablashuvi va rivojlanib borishi, yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarning insonning bevosita kundalik hayotiga ta‘siri borgan sari insonni ommaviy axborot kommunikatsiyalari tarqatadigan xabarlar oqimiga bog‘liq qilib qo‘ymoqda. Inson o‘zining jamiyatdagi xulq-atvori va hayoti uchun zarur ma‘lumotlarni faqatgina kundalik hayotiga asoslanib oladigan bo‘lsa, u juda oz ma‘lumotga ega bo‘ladi. Inson o‘zi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy axborotni ko‘proq Internet va ijtimoiy tarmoqlardan, teleradio dasturlaridan, davriy nashrlardan oladi. Bu hol ayniqsa insonning bevosita tajribasida o‘z ifodasini topmaydigan masalalarda, masalan, boshqa shaharlardagi, mintaqalar va mamlakatlardagi ahvolga doir, siyosiy yetakchilar haqidagi, iqtisodiy kon’yunktura va boshqa shu kabilar to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar shakllanishida yorqin namoyon bo‘ladi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, inson, uning kundalik hayoti borgan sari ko‘proq ommaviy kommunikatsiyalarga bog‘liq bo‘lib borayotganligi tufayli, inson o‘ziga xos “ikkinchi reallik”ni, “sub’yektiv reallik”ni yaratadi, va aytish zarurki, bu reallik ko‘rsatadigan ta‘sirning ahamiyati ob’yektiv reallikning ta‘siridan kam emas.

Insonning psixikasiga axborot ta‘siri ko‘rsatish yoki boshqacha qilib aytganda, axborot-psixologik ta‘sir ko‘rsatish deyarli bir umr davom etadi. Bunday ta‘sirga inson turli vaziyatlarda duch keladi.

Rivojlanishning hozirgi bosqichi siyosiy kurashda odamlar ruhiyatiga manipulyativ ta'sir ko'rsatishning eng yangi texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan tamoyilni pasaytirmadi, balki aksincha kuchaytirdi.

Bu esa insoniyat ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish natijasida, ularni faolligini susaytirishga, ba'zi hollarda esa noto'g'ri yo'lga kirishi natijasida davlat siyosatiga qarshi chiqishga olib keladi, ichki siyosiy vaziyatning barqarorligiga putur yetkazadi va jamiyatda islohotlarni o'tkazishni qiyinlashtiradi.

Hozirgi sharoitda jamiyat taraqqiyoti mantig'ining o'zaro shaxs, jamiyat va davlatning axborot-psixologik jihatdan xavfsizligi borasida faol ish olib borish zaruriyatini eng muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda. Axborot sohasida xavfsizlikni ta'minlash, oxir-oqibatda jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi islohotlarni samarali amalga oshirilishiga erishiladi.

Axborot omillarining odamlar ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'sirning ko'lami va qudrati, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashni hozirgi sharoitlarda umummilliy muammo darajasiga ko'tarishni taqozo qilmoqda.

Ko'lami, tizim-tuzilmasi turli darajada bo'lgan ijtimoiy sub'yektlar timsolida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ko'plab turli-tuman ob'yektlari mavjudligiga qaramay, yuqorida ta'kidlanganidek, inson, va avvalo yoshlar eng faol ijtimoiy qatlam bo'lganligi uchun, axborot ta'sirining asosiy va bo'linmas tuzilmaviy elementi hamda markaziy ob'yekti bo'lib qoladi.

O'z maqsadlariga erishish uchun axborot-psixologik ta'sirning turli vositalarini qo'llashni boshlab, shu usul orqali odamlar xulq-atvorini ayni ularning manfaatlariga ziyon yetkazgan holda o'zgartirishi yuqorida tilga olingan ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatini yanada xavfli qilib qo'yadi. Bu borada ayrim diniy sektalarning faoliyatini, milliy-etnik muammolar keltirib chiqaruvchi omillarni, nohalol reklamani misol sifatida keltirish mumkin.

Muayyan sharoitlarda davlatning o'zini shaxsning axborot-psixologik xavfsizligiga tahdid qiluvchi manbalardan biri sifatida ajratib ko'rsatish mumkin. Bu hol davlat rahbarlarining, siyosiy namoyondalarning xatti-harakatlari bilan bog'liq. Mamlakat manfaatlariga zid bo'lgan harakatlarini yashirish maqsadida aholiga axborot-psixologik ta'sir o'tkaziladi, ba'zi hollarda shunchaki jizzakilik qilib o'z apparatining qudratidan foydalanganlarida xavf yuzaga keladi.

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllanishiga axborot-psixologik ta'sirning jihatlarini e'tirof etib, uning asosiy manbalarini umumlashtirgan tarzda quyidagicha keltirish mumkin.

Davlat (shu jumladan xorijiy davlat), hokimiyat va boshqaruv organlari hamda boshqa davlat tuzilmalari va muassasalari.

Jamiyat (turli, shu jumladan, xorijiy jamiyat, iqtisodiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar).

Turli ijtimoiy guruhlar (yashash, ish, o'qish, xizmat, birgalikda yashash va bo'sh vaqtni birga o'tkazish va shu kabi boshqalar bo'yicha rasmiy va norasmiy, barqaror va tasodifiy, katta va kichik ijtimoiy guruhlar).

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishda quyidagi sohalar muhim ahamiyatga ega:

- ommaviy axborot vositalari;
- adabiyot va san'at (shu jumladan, ommaviy madaniyat deb atalmish madaniyatning turli yo'nalishlari va boshqa shu kabilar);
- ta'lim (shu jumladan maktabgacha tarbiya, o'rta, oliy va o'rta maxsus davlat va nodavlat ta'limi tizimlari, muqobil ta'lim deb atalmish ta'lim tizimi va boshqa shu kabilar);
- tarbiya (ta'lim, jamoat tashkilotlari tizimidagi – rasmiy va norasmiy tashkilotlar, ijtimoiy ishni tashkil etish tizimlari va boshqa shu kabilardagi tarbiyaning turli shakllari);
- shaxsiy muloqot.

Yoshlarning axborotga bo'lgan oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va ularda axborot madaniyatni shakllantirish uchun:

milliy axborot makonini izchil rivojlantirish va uni axborot resurslari bilan boyitish;

axborotni izlash, uni qayta ishlash, uni saqlash va undan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

davlat organlari faoliyati yuzasidan xolis, tezkor va to'la-to'kis axborot olish imkoniyatini yanada kengaytirish;

axborot xizmatidan foydalanuvchilar, avvalo yoshlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini mavjud manbalardan materiallarni tanlab olishda ularga metodologik yordam ko'rsatish yo'li bilan qanoatlantirish lozimdir.

Shu munosabat bilan, aholi o'rtasida media madaniyatini shakllantirish jarayonining samarasini oshirishga alohida e'tibor qaratadigan sohalarni tahliliy jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Aholining xususan yoshlarning media madaniyatini shakllantirishning samarasini oshirishning me'yoriy-huquqiy, tashkiliy va texnologik jihatdan amaliy ishlar olib borilishi kerak.

Axborot xavfsizligi tizimini me'yoriy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston axborot sohasida olib borayotgan siyosat yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan

qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi” [8], deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy me‘yorlar yanada takomillashtirildi va mass-media faoliyatini tartibga soluvchi 10 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. So‘nggi yillarda mamlakatda mass-media faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va aholining media madaniyatini shakllantirishda samaradorligini oshirishga qaratilgan yana 20dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi.

Media madaniyatni shakllantirishning yana bir samarali yo‘li – mavjud normativ-huquqiy bazada belgilangan me‘yorlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy masalalardir.

Tashkiliy masalalarni ta‘minlashda, birinchi navbatda, mazkur sohadagi barcha ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi davlat tuzilmalarini takomillashtirish talab etiladi. Davlat organlari, turli muassasalar, mansabdor shaxslarning axborot olish tartibi, fuqarolaraxborot resurslariga kirish, yaratish kabi imkoniyatlarini ta‘minlash borasidagi majburiyatlari, “Axborot erkinligining tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”gi (2002 y.) Qonun [9] da aks ettirilgan.

“Ushbu qonun talablariga muvofiq, bugun barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar har kimga o‘zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta‘minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta‘minlashga majburdirlar” [10]. Qonun me‘yorlariga muvofiq, saytda joylashtirilgan ma‘lumotlar ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan ma‘lumotlarga teng kuchga ega. Bundan tashqari, boshqa veb-saytlar soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Milliy statistika qo‘mitasi uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuv natijalariga ko‘ra, yillar kesimida internetdan foydalanuvchilar ulushi quyidagicha o‘shish qayd etilgan: 2021-yil – 76,6 %, 2022-yil – 83,9 %, 2023-yil – 89 %, 2024-yil – 93,3 %, 2025-yil yanvar–avgust oylarida mamlakat aholisining 94,2 foizi internetdan foydalangan [11]. Xususan, faqat “uz” domeni zonasidagi veb-saytlar soni 140 mingdan oshdi (2002 yilda 587 ta) [12].

Shunday qilib, on-layn veb-saytlar sonini ko‘paytirish orqali aholi va xalqaro hamjamiyatning mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida xabardorlik darajasini oshirish uchun sharoit yaratiladi.

Bundan tashqari, elektron ommaviy axborot vositalarini qo‘llab -quvvatlash va Internet makonini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi, yangi veb-saytlar va mustaqil telekanallar paydo bo‘lmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, aholining axborotga bo‘lgan talabini qondirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Ushbu vositalar va usullar texnologik qo‘llab-quvvatlashning muhim omillaridir va ular axborotni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri himoya qilish uchun mo‘ljallangan.

Ma‘lumki, mediamadaniyatning muhim bir jihatlaridan biri aholi tomonidan ma‘lumotlarni, jumladan, shaxsiy ma‘lumotlarni saqlashning texnik va texnologik imkoniyatlarning yaratilganligidan iboratdir. Bu borada ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab o‘nlab davlatlarning siyosatchilari, jurnalistlari va ijtimoiy faol odamlarining telefon so‘zlashuvlari Pegasus josuslik dasturi yordamida sezdirilmay kuzatilgan. Bu haqda 17ta nashrning 80 nafar jurnalisti birgalikda olib borgan surishtiruvda aytiladi. Ular orasida Guardian, Washington Post, Haaretz, Suddeutsche Zeitung va Amnesty International kabi nufuzli nashrlar bor. Telefonlari sezdirilmay kuzatilganlarning ro‘yxatida 65 nafar top-menejer, 85 nafar huquq faoli, 189 jurnalist, 600dan ortiq siyosatchi va mansabdorlar, vazirlar, arab davlatlaridagi qirollik oilasi vakillari, advokatlar, ishlab chiqaruvchilar bo‘lgan.

Isroil kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan bu kuzatuv dasturi orqali Fransiya prezidenti Emmanuel Makron, Pokiston bosh vaziri Imron Xon, Iroq prezidenti Barama Solih, JAR prezidenti Siril Ramafozu, Misr bosh vaziri Mustafu Mabduli, Marokash bosh vaziri Saididdin Usmoni, Marokash qiroli Muhammad oltinchining telefonlari kuzatilganligining ehtimoli mavjudligi haqida ma‘lumotlar tarqatilgan.

Har qanday davlatning axborot xavfsizligiga ta‘sir ko‘rsatadigan nisbatan yangi maydon – global axborot infratuzilmasining milliy segmentini yaratish.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonda global axborot infratuzilmasining milliy segmentini yaratishning asosiy strategik yo‘nalishlarini belgilab olingan. Belgilangan quyidagi vazifalarni amalga oshirish aholi va avvalo, yosh avlodda axborot madaniyatini shakllantirishga ko‘mak beradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik va xo‘jalik faoliyatini, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarini axborot bilan ta‘minlashni takomillashtirish;
- davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining barqarorligi va samaradorligini oshirish;
- dasturiy mahsulot vositalarini ishlab chiqish va sotish hamda robototexnika, Internet orqali axborot xizmatlarini tijratlashtirish;
- axborot almashish va intellektual mulk shakllarini himoya qilishda xalqaro huquq normalariga rioya qilish;
- onlayn ta‘lim shaklini takomillashtirish va mutaxassislar malakasini oshirish tizimini keng joriy qilish.

1. Mirziyoyev Sh. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash - xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017 . – B. 86.
2. Mirziyoyev Sh. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash - xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017 . – B. 86.
3. Ўша манба – Б. 87.
4. http://yomi.uz/wpcontent/uploads/2020/10/%D0%94%D1%83%D0%BD%D1%91_%D0%B3
5. Mirziyoyev Sh. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash - xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratishning kafolatidir. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2017 . – B. 86.
6. Upphävt författning Bibliotekslag (upphävt) 904/1998 – FINLEX<https://www.finlex.fi/sv/laki/ajantasa/kumotut/1998/19980904>
7. Upphävt författning Bibliotekslag (upphävt) 904/1998 – FINLEX<https://www.finlex.fi/sv/laki/ajantasa/kumotut/1998/19980904>
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2023 .
9. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот эркинлигининг тамойиллари ва кафолатлари тўғрисида”ги (2002 й.) Қонуни. № 439-П // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – 2003. – № 1.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот эркинлигининг тамойиллари ва кафолатлари тўғрисида”ги (2002 й.) Қонунининг 8-модда.
11. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-internetdan-foydalanuvchilar-soni-ortib-bormoqda>
12. Информационные технологии для всех и каждого // Народное слово. - 2012. – 30 ноября.